


## Boshlang'ich ta'lim pedagogikasida tarbiya turlari va usullaridan foydalanish imkoniyatlari

Umirova Mohinur Mirzo qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11229225>



### ARTICLE INFO

Received: 18<sup>th</sup> April 2024

Accepted: 20<sup>th</sup> May 2024

Published: 21<sup>st</sup> May 2024

### KEYWORDS

*shaxs , odob-axloq ,  
tushuntirish ,  
rag'batlantirish , nasixat  
berish , namuna ko'rsatish ,  
tanbeh berish , komil inson ,  
ma'naviyat .*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya turlari va usullaridan foydalanishning imkoniyatlari va ahamiyati xususida fikr yuritiladi .*

**KIRISH.** Barchamizga ma'lumki , ta'lim tizimimizda ta'lim va tarbiya uyg'unlikda olib boriladi . Tarbiya bilan ta'lim qushning ikki qanotiga o'xshaydi . Ularni bir-biridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi . O'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan , milliy tarbiya avloddan avlodga o'tib kelmoqda . O'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak , buyuk ajdodlarimiz ham tarbiya masalasida o'zlarining fikr-mulohazalarini keng talqin etishgan . Buyuk alloma Abdulla Avloniy tarbiya haqida quyidagi fikrlarni keltirgan . " Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot , yo najot -yo halokat , yo saodat -yo falokat masalasidir " . Darhaqiqat agar bolaga yoshligidanoq to'g'ri tarbiya berib , uni tarbiyalamasa halokatga yuz tutishi tayin . Tarbiya eng birinchi navbatda oiladan boshlanadi . Oila -tarbiya qo'rg'onidir . Har bir bola dastlabki tarbiyani oiladan , ota-onasidan , yaqin insonlaridan oladi . Ushbu davrda har bir ota-ona bolasining taqdiriga befarq bo'lmasdan , to'g'ri tarbiya berishi lozim .

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Tadqiqot jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi , Ta'lim tog'risidagi qonun , mavzuga doir adabiyotlar va yana bir qancha qo'llanmalardan foydalanildi .

### MUHOKAMA

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilar aqliy salohiyati asta -sekinlik bilan rivojlanib boradi . Tarbiya jarayonini amalga oshirishda , har bir pedagog tizimli ishlarni amalga oshirmog'i lozim . Milliy tarbiya tizimimizda tarbiyaning quyidagi turlari mavjud .

Tarbiya – aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'sir jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning maqsadi esa, shaxsni komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Pedagoglardan talab etiladigan birgina talab esa, bola ongida tarbiya mazmunini singdirish va ularni to'g'ri yo'naltirishdir. Milliy tarbiya tizimimizda tarbiyaning quyidagi turlari mavjud.

- Aqliy tarbiya
- Jismoniy tarbiya
- Estetik tarbiya
- Mehnat tarbiyasi
- Huquqiy tarbiya
- Ekologik tarbiya
- Axloqiy tarbiya

Tarbiyaning barcha turlarining o'ziga xos xususiyati bor. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda tarbiyaning barcha turlari tizimlashtiriladi.

**Aqliy tarbiya** – insonga butun borliq va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda asosiy o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsni yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarini rivojlantiradi.

**Jismoniy tarbiya** – shaxsni jismonan sog'lom, barkamol bo'lib voyaga yetishida ko'mak beradi. Sog'lom turmush tarzi ortidan inson yetuklikka erishadi.

**Estetik tarbiya** – (estetika lot. – “estezio”) – go'zallikni his etaman degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy voqelikdagi, tabiat va jamiyatdagi go'zallikni his etish, estetik tasavvurni shakllantirish kabilarni ilgari suradi.


**Mehnat tarbiyasi** – mehnat tarbiyasi kishiga harakatda va ma'lum bir faoliyatni amalga oshirishga yordam beradi. Insonda go'zal fazilatlar vatanni sevib ardoqlash, asrab-avaylash kabi tuyg'ularni inson qalbiga singdiradi.

**Huquqiy tarbiya** – jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalar, o'rnatilgan ma'lum tartiblarga oid bilimlarni o'rin o'rnida qo'llay olish, huquqiy ong va savodxonlikni shakllanishida yordam beradi.

**Ekologik tarbiya** – atrof-muhit, inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bildiradi. Agar insonlarda ekologik tarbiya tushunchasi yaxshi shakllanmasa, borliqqa turli zararli holatlarni kelib chiqish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Bolalarni yoshligidanoq ekologik tarbiyaga amal qilishga o'rgatilsa, atrof-muhitda tozalik va soflik bo'ladi. Ekologik muammolarga kamroq duch kelinadi.

**Axloqiy tarbiya** – Axloq (lot. “morolis”) – xulq-atvor ma'nosini bildiradi) insonning ijtimoiy munosabatlar bilan, xatti-harakatlarini muayyan tartibga soluvchi odob, muoamala madaniyati, xulq-atvor qoidalarining yig'indisi demakdir.

Tarbiyaning barcha turlarini asosiy maqsadi insonda komillik va ma'naviy yetuklik sifatlarini namoyon etish, shaxsni ijobiy fazilatlarini shakllantirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tarbiyaning yuqoridagi 7 ta turi singdirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda quyidagi tarbiya usullaridan foydalaniladi.



1-rasm .Tarbiya usullari

Tushuntirish – har qanday ta’limiy, tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda, eng birinchi navbatda , tushuntirish bo’yicha targ’ibot ishlari olib boriladi . Rahbar yoki pedagog tomonidan o’quvchilar jamoasiga tushuntirish , ularga to’g’ri maslahat berish kabilar amalga oshiriladi .

Rag’batlantirish – tarbiyaning ushbu usuli ayniqsa , boshlang’ich ta’lim o’quvchilariga tarbiya jarayonini amalga oshirish vaqtida qo’l keladi . O’quvchilarning o’qish faoliyatida amalga oshirgan kichik bir ijobiy xatti-harakatini ham e’tibordan chetda qoldirmasdan , o’quvchilarda o’ziga bo’lgan ishonch motivini shakllantiradi .

Namuna ko’rsatish – o’quvchilar jamoasida faol , bilimdon , odob-axloqli o’quvchi hamisha o’qituvchi tomonidan e’tirof etiladi . Sinfdagi mana shunday iqtidorli yoshlarni o’rnak sifatida namuna qilib ko’rsatilsa , sinfdagi boshqa o’quvchilar ham tengdoshlariga havas qilgan holda , undagi ijobiy fazilatlarni olishga intiladi .

Nasihat berish - agar bola tarbiyasida salbiy tomonga qarab og’ishlik kuzatilsa , kattalar va nuroniylar o’zlarining dono fikrlari , hayotiy tajribalarini yoshlar bilan baham ko’rmog’i lozim .

Qoralash va jazolash – agar yuqorida ko’rsatilgan tarbiya usullari yaxshi natija ko’rsatmay , o’z samarasini bermasa , unda tarbiya berishning oxirgi usuli qoralash va jazolashdan foydalaniladi .

## XULOSA

Umumiy qilib aytganda , tarbiya turlari va usullari shaxsni komillik sari yetaklaydi . Pedagog faoliyatida ushbu usullardan samarali foydalanilsa , o’z samarasini beradi . Tarbiya usullaridan har bir pedagog kreativ yondashgan holda , ta’lim jarayoniga tatbiq etishi maqsadga muvofiq bo’ladi . Tarbiya jarayoni uzoq vaqt davomida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon hisoblanadi . Ushbu jarayonni amalga oshirishda , nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim . Bola tarbiyasiga jamiyatning barcha a’zosi mas’uldir . Ayniqsa , oilada va ta’lim muassasalarida olib boriladigan tarbiya jarayoni eng ahamiyatlisi hisoblanadi .

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O. Jabborova “ Boshlang’ich ta’limda tarbiya fanini o’qitish metodikasi ” o’quv – uslubiy majmua
2. I. Karimov “ Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch ” asari .
3. J. Hasanboyeva , X.A. To’raqulov , I. Sh. Alqarov , N.O. Usmanov “ Pedagogika ” .
4. Sh.M. Mirziyoyev “ Erkin va farovon demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz ” .

5. O'.Yo'ldoshev "Pedagogika".
6. Ziyonet tarmoqlari.



INNOVATIVE  
ACADEMY